Abstract. This article provides a scientific analysis of current issues related to liquidity management in commercial banks and examines their impact on the stability of banking activity and financial security. The study considers internal and external factors affecting liquidity levels, including the stability of the deposit base, the quality of the loan portfolio, the effectiveness of asset and liability management, and changes in macroeconomic conditions. In addition, the article analyzes liquidity management methods and prudential standards applied in international banking practice and highlights the possibilities of their effective implementation in the activities of commercial banks. Based on the research findings, practical recommendations have been developed to reduce liquidity risk in banks, ensure balanced asset and liability management, expand the use of digital technologies, and improve the liquidity monitoring system. These recommendations contribute to strengthening the financial stability of commercial banks and developing an effective liquidity management system.

Keywords: commercial banks, liquidity, liquidity management, liquidity risk, assets, liabilities, deposit base, loan portfolio, financial stability, prudential standards, Basel III, asset and liability management, digital technologies, liquidity monitoring, banking system.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini tubdan isloh qilish, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ularning iqtisodiyotdagi rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni¹ bilan bank tizimida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, banklar kapitali va likvidligini mustahkamlash, risklarni boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalar etib belgilangan. Mazkur strategiya tijorat banklarida likvidlikni samarali boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-son Qonuniga² bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlash, xususi sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish hamda xalqaro prudensial standartlarni bank amaliyotiga tatbiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi tijorat banklarida likvidlikni boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Likvidlik bankning o'z moliyaviy majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Uning yetarli darajada ta'minlanishi banklarning to'lovga layoqatlilikini saqlash, omonatchilar va investorlar ishonchini mustahkamlash hamda mamlakat moliya tizimining barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida qisqa muddatli depozitlarning ustunligi, uzoq muddatli kreditlash hajmining ortishi, aktivlar va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomutanosibligi likvidlikni boshqarish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Shu bilan birga, Basel III standartlari asosida joriy etilgan Liquidity Coverage Ratio (LCR) va Net Stable Funding Ratio (NSFR) kabi prudensial ko'rsatkichlar banklarda likvidlik riskini samarali boshqarishning muhim vositalariga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida likvidlikni boshqarish bilan bog'liq muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada tijorat banklarida likvidlikni boshqarishning mavjud holati baholanib, asosiy muammolar va ularni bartaraf etishning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida likvidlikni boshqarish masalalari xalqaro va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda likvidlik risklarini baholash, aktiv va passivlarni boshqarish, prudensial me'yorlarni takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy iqtisodchi olim A. Omonov o'zining "Pul, kredit va banklar" nomli o'quv qo'llanmasida tijorat banklari faoliyatida likvidlikni ta'minlash bankning moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi³. Muallif aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik banklarda likvidlik riskini yuzaga keltirishini asoslab, depozit bazasining barqarorligini oshirish hamda resurslarni samarali boshqarish zarurligini qayd etadi.

Professor Sh. Abdullayevaning "Bank ishi" darsligida bank likvidligini boshqarish mexanizmlari, likvid aktivlarning tarkibi va ularning to'lovga layoqatlilikini ta'minlashdagi o'rni batafsil yoritilgan⁴. Muallif banklarning likvidlik siyosatini ishlab chiqishda risklarni baholash, pul oqimlarini prognozlash hamda Markaziy bank prudensial me'yorlariga qat'iy amal qilish muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Iqtisodchi olim A. Akhunovning "Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish" nomli ilmiy maqolasida bank risklari tarkibida likvidlik riskining alohida o'rni tahlil qilingan⁵. Muallif raqamli texnologiyalar va zamonaviy monitoring tizimlaridan foydalanish likvidlik risklarini kamaytirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>.

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.11.2019 yildagi O'RQ-582-son <https://lex.uz/docs/-4590452>.

3 Omonov A.A. Pul, kredit va banklar. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. - 496 b.

4 Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi. Darslik. - Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2017. - 732 b.

5 A. Akhunov Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish // TDIU ilmiy jurnali. - 2022. - № 3.



Shuningdek, B. Nabiyeving "O'zbekiston tijorat banklari likvidligini oshirishning zamonaviy yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotida banklar resurs bazasini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda xalqaro prudensial standartlarni amaliyotga joriy etish orqali likvidlikni samarali boshqarish imkoniyatlari asoslab berilgan⁶.

Xorijiy olimlardan Frederic S. Mishkin o'zining "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" asarida bank likvidligini pul-kredit siyosati bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy kategoriya sifatida tavsiflaydi⁷. Muallifning fikricha, banklar yuqori daromadlilik va likvidlik o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlagan taqdirdagina uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erisha oladi.

Amerikalik olimlar Peter S. Rose va Sylvia C. Hudgins tomonidan yaratilgan "Bank Management and Financial Services" asarida aktiv va passivlarni boshqarish, ya'ni Asset-Liability Management, bank likvidligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida e'tirof etilgan⁸. Mualliflar bank balansining optimal tuzilishini shakllantirish, pul oqimlarini rejalashtirish va likvid aktivlar ulushini yetarli darajada saqlash bank faoliyati samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Raghavendra S. Sharmaning "Issues in Liquidity Management in Banking System" nomli ilmiy maqolasida bank tizimida likvidlik muammolarining asosiy sabablari sifatida kredit portfeli tarkibidagi nomutanosiblik hamda aktivlar va majburiyatlar muddatlari o'rtasidagi tafovut ko'rsatilgan⁹. Muallif Markaziy bankning monetar instrumentlari va likvidlik monitoringi tizimini takomillashtirish ushbu muammolarni kamaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Nobel mukofoti sovrindori, iqtisodchi Douglas W. Diamondning "Banks and Liquidity Creation: A Simple Exposition of the Diamond-Dybvig Model" nomli asari hamda bank likvidligi bo'yicha boshqa ilmiy ishlari banklarning iqtisodiyotda likvidlik yaratishdagi strategik rolini yoritadi¹⁰. Muallif bank tizimida ishonchning pasayishi va ommaviy depozit yechib olish holatlari likvidlik inqirozini yuzaga keltirishini ilmiy jihatdan asoslab, samarali prudensial nazorat va depozitlarni kafolatlash tizimi bunday xavflarni kamaytirishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida likvidlikni boshqarish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, Basel III standartlari talablarini to'liq implementatsiya qilish hamda O'zbekiston tijorat banklari sharoitida likvidlikni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu yo'nalishlarni chuqur tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish muammolarini aniqlash, ularning yuzaga kelish omillarini baholash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini bank likvidligi, moliyaviy barqarorlik va risklarni boshqarish sohasida mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida analiz va sintez usullari yordamida tijorat banklari likvidligiga ta'sir etuvchi ichki hamda tashqi omillar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli orqali O'zbekiston tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari xalqaro prudensial me'yorlar, xususan, Basel III talablari bilan solishtirildi. Shuningdek, statistik tahlil usulidan foydalangan holda bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari dinamikasi hamda ularning o'zgarish tendensiyalari baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Bank for International Settlements (BIS) hamda Basel Committee on Banking Supervision (BCBS) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar va tavsiyalar tashkil etdi.

Bundan tashqari, induksiya, deduksiya va tizimli yondashuv usullari asosida likvidlikni boshqarish amaliyotining samaradorligi baholanib, aktiv va passivlarni boshqarish, depozit bazasini mustahkamlash, likvidlik riskini kamaytirish hamda xalqaro tajribani milliy bank amaliyotiga moslashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar

6 B. Nabiyeu O'zbekiston tijorat banklari likvidligini oshirishning zamonaviy yo'nalishlari // "Moliyaviy tahlil va iqtisodiy islohotlar" jurnali. - 2023. - № 2.

7 F. S. Mishkin The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th ed. - Pearson Education, 2019.

8 P.S.Rose, S.C.Hudgins Bank Management & Financial Services. 9th ed. - New York: McGraw-Hill Education, 2012. - 768 p.

9 R. S. K.Sharma, K.Bijoy, A.Sahay Issues in Liquidity Management in Banking System: An Empirical Evidence from Indian Commercial Banks // Cogent Economics & Finance. - 2022. - Vol. 10, Issue 1.

10 D. W. Diamond Banks and Liquidity Creation: A Simple Exposition of the Diamond-Dybvig Model // Economic Quarterly. - Federal Reserve Bank of Richmond, 2007. - Vol. 93, No. 2. - P. 189-200.



ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida likvidlikni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatida likvidlikni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bank likvidligining yetarli darajada bo'lishi mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish, kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlash hamda to'lov tizimining barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Shu sababli xalqaro bank amaliyotida likvidlik darajasini baholashda Liquidity Coverage Ratio (LCR), Net Stable Funding Ratio (NSFR) va High-Quality Liquid Assets (HQLA) kabi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Mazkur indikatorlar banklarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini baholashda muhim mezon sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-2025-yillarda bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari xalqaro Basel III talablariga muvofiq shakllanib borgan. Mazkur davr mobaynida banklar tomonidan yuqori sifatli likvid aktivlar hajmini oshirish, likvidlik zaxiralarini mustahkamlash hamda barqaror moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilgan (1-jadval).

1-jadval
O'zbekiston bank tizimining asosiy likvidlik ko'rsatkichlari (2021-2025-yillar)¹¹

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Yuqori sifatli likvid aktivlar (mlrd so'm)	50 476	75 992	104 473	133 229	143 345
Yuqori sifatli likvid aktivlarning jami aktivlardagi ulushi (%)	14,2	17,7	19,4	17,3	17,9
Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR, %)	224,5	189,6	211,6	193,8	196,8
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR, %)	109,9	115,4	115,6	115,3	116,2
Lahzali likvidlik koeffitsiyenti (%)	67,4	99,3	110,1	112,3	132

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021-2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida likvidlik ko'rsatkichlari ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, yuqori sifatli likvid aktivlar hajmi 2021-yildagi 50,5 trln so'mdan 2025-yilda 143,3 trln so'mga yetib, qariyb 2,8 baravarga oshgan. Bu banklar resurs bazasining mustahkamlanishi hamda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan samarali monetar siyosat natijasi sifatida baholanadi.

Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) 2021-yilda 224,5 foiz, 2022-yilda 189,6 foiz, 2023-yilda 211,6 foiz, 2024-yilda 193,8 foiz va 2025-yilda 196,8 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich barcha yillarda xalqaro 100 foizlik minimal normativdan deyarli ikki baravar yuqori bo'lib, tijorat banklarining qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyati yetarli darajada ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) ham 2021-2025-yillar davomida 109,9-116,2 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, bu banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari barqarorligini ko'rsatadi. Lahzali likvidlik koeffitsiyenti esa 2021-yildagi 67,4 foizdan 2025-yilda 132 foizga yetib, qariyb ikki baravarga oshgan. Bu tijorat banklarining qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini zudlik bilan bajarish salohiyati sezilarli darajada yaxshilanganligini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekiston bank tizimida likvidlik darajasi xalqaro standartlar talablariga muvofiq shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, kredit portfeli ulushining yuqoriligi ayrim hollarda aktivlar likvidligining pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli banklarda aktiv va passivlarni muddatlar bo'yicha muvofiqlashtirish, uzoq muddatli resurslar ulushini oshirish hamda zamonaviy raqamli likvidlik monitoringi tizimlarini keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi (2-jadval).


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Omillar	Likvidlikni boshqarishga ta'siri	Kutilayotgan natija
Yuqori sifatli likvid aktivlar (HQLA) ulushini oshirish	Bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini kuchaytiradi	Moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi
Basel III standartlari, ya'ni LCR va NSFR talablariga rioya etish	Likvidlik riskini samarali nazorat qilish imkonini beradi	Prudensial me'yorlarga muvofiqlik ta'minlanadi
Aktiv va passivlarni samarali boshqarish (ALM)	Resurslardan oqilona foydalanish va pul oqimlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi	Likvidlik darajasining barqarorligi oshadi
Depozit bazasini diversifikatsiya qilish	Moliyalashtirish manbalarining barqarorligini kuchaytiradi	Bank resurs bazasi kengayadi
Raqamli likvidlik monitoringi tizimlarini joriy etish	Real vaqt rejimida likvidlik holatini kuzatish imkonini yaratadi	Tezkor va samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi
Markaziy bankning monetar instrumentlaridan samarali foydalanish	Banklararo likvidlikni qo'llab-quvvatlaydi	To'lovga layoqatlilik va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida likvidlikni samarali boshqarish bir qator o'zaro bog'liq omillar asosida ta'minlanadi. Xususan, yuqori sifatli likvid aktivlar ulushini oshirish hamda Basel III standartlari talablariga rioya qilish banklarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aktiv va passivlarni samarali boshqarish, depozit bazasini diversifikatsiya qilish hamda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish banklarda likvidlik risklarini kamaytirish bilan bir qatorda, boshqaruv samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Markaziy bankning monetar instrumentlaridan oqilona foydalanish esa banklararo likvidlikni qo'llab-quvvatlash va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi (1-rasm).



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1-rasm. 2021-2025-yillarda O'zbekiston bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari dinamikasi (%)¹³.

1-rasm bank tizimida likvidlik ko'rsatkichlari ijobiy dinamikaga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, LCR va NSFR ko'rsatkichlarining xalqaro minimal talabdan ancha yuqori darajada shakllanishi tijorat banklarining qisqa va uzoq muddatli likvidlik risklariga nisbatan barqarorligini tasdiqlaydi.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Shu bilan birga, mazkur natijalar bank tizimida likvidlikni boshqarish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ham ko'rsatadi. Xususan, resurs bazasini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli depozitlarni rag'batlantirish, likvid aktivlar ulushini oshirish hamda sun'iy intellekt va real vaqt monitoringiga asoslangan ALM (Asset-Liability Management) tizimlarini keng joriy etish likvidlikni boshqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida likvidlikni samarali boshqarish bank tizimining moliyaviy barqarorligi, to'lovga layoqatligi va mijozlar ishonchini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-2025-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari tahlili bank tizimida likvidlik ko'rsatkichlari xalqaro Basel III talablariga muvofiq shakllanib borayotganini ko'rsatdi. Xususan, Liquidity Coverage Ratio (LCR) va Net Stable Funding Ratio (NSFR) ko'rsatkichlarining minimal me'yorlardan yuqori darajada saqlanib kelayotgani tijorat banklarining qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini bajarish salohiyati yetarli ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yuqori sifatli likvid aktivlar hajmining izchil oshib borishi banklarda likvidlik zaxiralari mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun likvidlikni boshqarish tizimini muntazam takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, aktiv va passivlarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida pul oqimlarini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda xalqaro tajribani milliy bank amaliyotiga moslashtirish banklar faoliyati samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, likvidlikni baholashda makroiqtisodiy omillar, bozor sharoitlari va mijozlar xatti-harakatlarini prognozlashga asoslangan zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish (ALM) tizimini takomillashtirish orqali resurslar muddatlari o'rtasidagi muvozanatni kuchaytirish hamda likvidlik riskini kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yuqori sifatli likvid aktivlar (HQLA) ulushini bosqichma-bosqich oshirish va ularning tarkibini diversifikatsiya qilish banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini yanada mustahkamlaydi. Barqaror moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, jumladan, uzoq muddatli depozitlarni rag'batlantirish va institutsional investorlar mablag'larini jalb etish banklarning resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalariga asoslangan likvidlik monitoringi tizimlarini joriy etish banklarda pul oqimlarini aniq prognozlash, likvidlik risklarini erta aniqlash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Stress-test va ssenariy tahlillarini muntazam o'tkazish esa turli makroiqtisodiy vaziyatlarda banklarning likvidlik darajasini baholash hamda ehtimoliy xatarlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Basel III standartlari va xalqaro prudensial me'yorlarni amaliyotga to'liq integratsiya qilish, shuningdek, Markaziy bankning likvidlikni qo'llab-quvvatlash instrumentlaridan samarali foydalanish bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tijorat banklarida likvidlikni boshqarish tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, iqtisodiyotning real sektorini uzluksiz moliyalashtirish va mamlakat bank tizimining xalqaro moliya bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligini oshirish hamda bank-moliya tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4811025>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-582-son "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4590452>.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik to'g'risidagi hisobot - 2025. - Toshkent, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi statistik ko'rsatkichlari, 2021-2025-yillar. - Toshkent, 2025. - URL: <https://cbu.uz>.
5. Omonov A.A. Pul, kredit va banklar. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. - 496 b.
6. Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi. Darslik. - Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2017. - 732 b.



7. Akhunov A. Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish // TDIU ilmiy jurnali. - 2022. - № 3.
8. Nabiyev B. O'zbekiston tijorat banklari likvidligini oshirishning zamonaviy yo'nalishlari // "Moliyaviy tahlil va iqtisodiy islohotlar" jurnali. - 2023. - № 2.
9. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th ed. - Pearson Education, 2019.
10. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management & Financial Services. 9th ed. - New York: McGraw-Hill Education, 2012. - 768 p.
11. Sharma R. S. K., Bijoy K., Sahay A. Issues in Liquidity Management in Banking System: An Empirical Evidence from Indian Commercial Banks // Cogent Economics & Finance. - 2022. - Vol. 10, Issue 1.
12. Diamond D. W. Banks and Liquidity Creation: A Simple Exposition of the Diamond-Dybvig Model // Economic Quarterly. - Federal Reserve Bank of Richmond, 2007. - Vol. 93, No. 2. - P. 189-200.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>